



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



**Jek London asarlarida badiiy psixologizm****Kurasheva Shahrizoda Farhod qizi**

Termiz davlat pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich

Ta'limda xorijiy til (ingliz tili) yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Samadova Visola Baxtiyor qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Gumanitar yo'nalishlarda xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jek Londonning asarlari haqida ma'lumot beriladi, uning asarlarida uchraydigan badiiy psixologizm haqida tushuncha beriladi hamda badiiy psixologizmning inson omili uchun tutadigan o'rni haqida aytib o'tiladi.

Abstract: This article provides information about the works of Jack London, provides an understanding of the artistic psychologism found in his works, and discusses the role of artistic psychologism in the human factor.

Аннотация: В статье дается информация о произведениях Джека Лондона, дается понимание художественного психологизма, обнаруженного в его произведениях, а также обсуждается роль художественного психологизма в человеческом факторе.

Kalit so'zlar: bevosita tarjima, voqelikka asoslangan, badiiy psixologizm, estetik ta'sir, rasmiy stil, badiiy nutq, gumanistik, o'xshatish oborotlari.

Keywords: direct translation, based on reality, artistic psychologism, aesthetic effect, formal style, artistic speech, humanistic, metaphorical turns.

Ключевые слова: прямой перевод, с опорой на реальность, художественный психологизм, эстетический эффект, формальный стиль, художественная речь, гуманистический, метафорические обороты.

XX asr boshlarida Amerika adabiyoti jadal o'zgarishlar davrini boshdan kechirdi. Realizm va naturalizm oqimlari insonning tabiiy instinktlarini, ruhiy holatlarini, jamiyatdagi o'rnini qayta talqin qilishga intildi. Shu davr adabiyotida yorqin o'rin egallagan yozuvchilardan biri Jek London bo'lib, u badiiy psixologizmni o'ziga xos tarzda rivojlantirgan ijodkor sifatida tanilgan. Jek London asarlarining markazida shaxs, uning ong jarayoni, instinktlar bilan ong o'rtasidagi murakkab ziddiyatlar, ekstremal holatlarda namoyon bo'ladigan ruhiy kechinmalar turadi. Ayniqsa, uning shimol mavzusiga bag'ishlangan hikoya va romanlarida psixologizm markaziy badiiy vosita darajasiga ko'tarilgan.

Londonning psixologik mahorati shundan iboratki, u qahramonlarning ruhiy olamini bevosita tahlil qilish bilan kifoyalanmaydi, balki ularning his-kechinmalarini tabiat, hayvonlar, muhit, konfliktlar va harakatlar orqali ochadi. Uning psixologizmi nafaqat odamlar, balki hayvonlar ongining tasviri





orqali ham namoyon bo'ladi. Bu jihat London ijodini adabiyot tarixida alohida o'ringa qo'yadi.

London ko'proq qahramonlarini o'lim xavfi, sovuq, ochlik, yovvoyi tabiat bilan kurash kabi og'ir vaziyatlarga qo'yadi. Chunki ana shunday sharoitda insonning chinakam psixologik tabiatini ko'rish mumkin.

"To Build a Fire" hikoyasida psixologizm

Qahramonning dastlabki o'ziga ishonchi → havotir → qo'rquv → vahima → umidsizlik → taslim bo'lish jarayoni bosqichma-bosqich beriladi. Psixologik holat tabiatning shafqatsiz sovuqligi bilan parallel tasvirlanadi. Bu Londonning "tabiat inson ruhiyatining ko'zgusi" tamoyiliga asoslanadi. London asarlarida hayvonlar ongini tasvirlash o'ziga xos psixologik yutumdur. Uning bu boradagi yondashuvi realizm va naturalizm uyg'unligidan hosil bo'lgan.

"The Call of the Wild" romanida psixologizm

Bukning ichki o'zgarishi – muloyim uy itidan yovvoyi hukmdorga aylanishi psixologik evolyutsiya sifatida ochiladi. Hayvon qahramonning ichki kechinmalari antropomorfizmga berilmasdan, instinktlar, xotira, o'rgatish va tajriba orqali tasvirlanadi. Bukning rahbarlik iste'dodi, qo'rquvni yengishi, tajriba orqali o'zgarishi psixologik asosga ega.

"White Fang"dagi psixologik tasvir

White Fangning yovvoyi hayotdan inson bilan muloqotga moslashuvi, qo'rquvni yengib, sadoqatni his qilishi – murakkab psixologik jarayon sifatida beriladi. Bu asarda "ruhiy moslashuv", "ijtimoiylashuv", "atrof-muhit psixologiyasi" kabi tushunchalar badiiy talqinda namoyon bo'ladi. London psixologizmi faqat individual emas, balki ijtimoiy asoslangan. Qahramonlarning ruhiy holati jamiyat strukturalari, tabaqalanish, iqtisodiy bosim, sinfiy tengsizlik bilan chambarchas bog'langan.

"Martin Eden"da qahramonning jamiyatga moslashmasligi ijtimoiy psixologizm sifatida ochiladi.

"The People of the Abyss"da kambag'allarning ruhiy holati, jamiyatning zulmi ostidagi psixologik ezilish tasvirlanadi. London psixologizmi shu tariqa ijtimoiy tahlil bilan bog'lanadi.

Demak, estetik ta'sir etish funktsiyasi badiiy nutqning o'ziga xos xususiyatidir. Badiiy adabiyotning bu asosiy va o'ziga xos funktsiyasiga adabiy asarda til vositalarini tanlash va ishlatish printsiplari ham to'la bo'ysunadi. Til vositalaridan individual ijodiy foydalanish badiiy stilning adabiy tilning boshqa funktsional stillariga nisbat o'ziga xosligini belgilovchi eng asosiy xususiyatlardan biridir. Adabiy til stillarning har birida til vositalaridan foydalanishda individuallikning namoyon bo'lish darajasi turlicha. Masalan, rasmiy stilda biron shaxsiy uslub "muhri"ni ko'rish, topish ancha qiyin. Shunga ko'ra, bu nutq stilida individuallikning namoyon bo'lishi uslub normasining buzilishi deb ham qaraladi. Ilmiy stilda esa individuallikning





namoyon bo'lishi ehtimoldan uzoq emas, chunki bu stilni shaxs (individ)ning ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday bo'lsa ham, til vositalarini individual ishlatish xususiyati ilmiy stil uchun xarakterli belgi bo'la olmaydi. Publitsistik stilda esa yanada boshqacharoq. Publitsistikaning ba'zi turlarida individual uslub aniq bilinib turishi mumkin. Ammo til vositalarini tanlash va ishlatishdagi individuallik publitsistik stilning barcha namunalariga xos xususiyat emas. Adabiy asarlarda individual xususiyatlar asarning badiiylilik qimmatini belgilovchi asosiy o'lchovlardan biridir.

Adabiy asarda detallaming haqqoniy bo'lishi -obrazlarning, xarakterlarning va butun hayot manzaralarning haqqoniy bo'lishini ta'min etadi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Jek London asarlarining xalq orasida mashhur bo'lishining asl sabablari uning real voqealarni real tasvirlashida deb aytish mumkin.

Jek London hikoyalari hayotiy voqelikka asoslangan bo'lib, ular yozuvchining o'ta sinchkov, kuzatuvchan shaxs ekanidan dalolat beradi. Bu asarlar bilan tanishgan o'quvchi hayotni yana-da chuqurroq o'rganadi, uning pastu balandlikdan iborat yo'l ekanini his qiladi, muallifning jonli tasvirlarida o'z hayoti bilan uyg'un bo'lgan qandaydir o'xshash chizgilarni ko'radi. Yozuvchi qalamiga mansub asarlarning bugungi kungacha yashab, muxlislari tarafidan sevib-ardoqlanib kelinayotganining siri ham shunda.

Xulosa

Jek London ijodi XX asr boshlaridagi Amerika adabiyotida inson psixologiyasini badiiy talqin qilishda eng yorqin namunalardan biri hisoblanadi. Yozuvchi realizm va naturalizmning tamoyillarini o'ziga xos tarzda uyg'unlashtirib, shaxsning ichki olamini ekstremal holatlar orqali chuqur ochib bera oldi. Uning asarlarida psixologizm insonning tashqi xatti-harakati yoki bevosita ichki monologi bilan emas, balki tabiatning shafqatsiz manzaralari, hayot-mamot kurashi, instinktlarning uyg'onishi va muhitning ta'siri orqali ifodalanadi. Londonning badiiy uslubi aynan mana shu tabiiylik, kuchli dinamik tasvir va realistik detallarning uyg'unligi bilan alohida ajralib turadi.

"To Build a Fire", "The Call of the Wild", "White Fang" kabi asarlarda inson va hayvon ongining psixologik tahlili bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda ochiladi. Yozuvchi hayvon ruhiyatini ham insoniylashtirmay, balki biologik va instinktiv asosda badiiy tasvirlaydi. Bu Londonning ijodiy mahoratini yanada yuksaltirib, uning asarlariga o'ziga xos ilmiy-psixologik chuqurlik beradi. "Martin Eden", "The People of the Abyss" kabi asarlarida esa psixologizm ijtimoiy ziddiyatlar, sinfiy tengsizlik, ma'naviy izlanishlar va jamiyat bosimi ostida shakllanuvchi ruhiy kechinmalar orqali namoyon bo'ladi. Bu esa Jek London psixologizmining nafaqat individual, balki ijtimoiy xarakterga ham ega ekanini ko'rsatadi.





Jek Londonning asarlarida badiiy psixologizmning samarali ifoda etilishida til vositalarining o'rne beqiyosdir. Tabiat tasvirlari, real hayotiy detallar, sensor obrazlar va kuchli dramatik vaziyatlar qahramon ruhiyatining o'zgarishiga bevosita ta'sir qiladi. Yozuvchining kuzatuvchanligi, voqealarni aniq, haqqoniy tasvirlashi asarlarining badiiy qiymatini oshiradi va ularni o'quvchi qalbiga yaqinlashtiradi. Ana shunday holatlar tufayli London asarlari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan, bal-ki har bir yangi avlod uchun hayot saboqlarini beruvchi adabiy maktab vazifasini o'tamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Isakova Barchinoy Ne'matovna „Jek London asarlarida ijodkor iste'dodi“ 2024
2. Jek London “Kish haqida qissa” Tarjima” Toshkent 1996.–22 b.
3. Pulatov Yu. Badiiy asarda nomlar tarjimasi. T.: Fan, 1967, 37-bet
4. Будагов Р. А. В защиту понятия "стиль художественной литературы". «Вестник», МГУ. 1962, No 4
5. London J. Martin Eden. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1981. – 432 b
6. London J. Shimol hikoyalari (“Olov yoqish” hikoyasi). – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 1987. – 254 b.

